Temperament va kasb tanlash motivlarining o’zaro bog’liqligi

Tilavoldiyeva Ruxshona Vositbek qizi
Qo‘qon universiteti Psixologiya yo‘nalishi
PS 1.22 - guruh talabasi
ruhshonaabdumannobova8@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada temperament va kasb tanlash motivlarining o’zaro bog’liqligi, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari hamda kasbiy yo’nalganlikka ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan.Shuningdek, temperament turlari kasb tanlash jarayonidagi o’rni va motivatsion omillar bilan aloqasi yoritilgan.

Abstract. This article analyzes the relationship between temperament and career choice motivation, as well as the influence of individual psychological characteristics on professional orientation. The study examines the role of temperament types in the process of career choice and their connection with motivational factors. It is emphasized that temperament affects a person’s interests, decision-making style, adaptability, and professional preferences. The findings indicate that taking temperament characteristics into account during career guidance can contribute to successful professional adaptation and career satisfaction. The results of the study may be useful in career counseling, professional orientation, and psychological support programs for young people.

Kalit so‘zlar: Temperament, kasb tanlash, motivatsiya, kasbiy faoliyat, individual xususiyatlar, kasbiy yo’nalganlik, shaxs psixalogiyasi.

Keywords: temperament, career choice motivation, professional activity, individual psychological characteristics, vocational orientation, personality psychology, professional adaptation, occupational success.

Kirish. Bugungi kunda mehnat bozoridagi raqobatning kuchayishi, kasblarning murakkablashuvi hamda mutaxasislarga qo’yilayotgan talablarning ortishi kasb tanlash jarayonini yanada dolzarb masalaga aylantirmoqda. Kasb talanlash inson hayotidagi eng muhim qarorlardan biri bo’lib, uning kelajakdagi muvaffaqiyati va o’zini namoyon etish imkoniyatlariga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli kasb tanlashda shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini, jumladan temperamentning hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

O’zbekiston Respublikasida inson kapitalini rivojlantirish va yoshlarni kasbga yo’naltirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz tomonidan ilgari

surilgan islohotlarda yoshlarning qobiliyat va imkoniyatlarini to'g'ri baholash, ularning kasbiy salohiyatini ro'yobga chiqarish muhim vazifa sifatida belgilangan[1].

Adabiyotlar tahlili. Temperament muammosi qadim zamonlardan buyon olimlar e'tiborida bo'lib kelgan. Gippokrat temperamentning to'rt tipini ajratib ko'rsatgan: sangvinik, xolerik, flegmatik va melanxolik[2]. Keyinchalik I.P.Pavlov temperamentning fiziologik asoslarini ishlab chiqib, uning nerv tizimi xususiyatlari bilan bog'liqligini asoslab bergan[3].

Sharq mutafakkirlari ham insonning individual xususiyatlari va kasbiy faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikka katta e'tibor qaratganlar. Abu Nasr Forobiy inson muvaffaqiyati uning tabiiy qobiliyatlariga mos faoliyat bilan shug'ullanishiga bog'liq ekanligini ta'kidlagan[4]. Abu Ali ibn Sino esa inson mijozi va fe'l-atvori uning faoliyat samaradorligiga ta'sir ko'rsatishini qayd etgan[5].

O'zbek psixolog olimlari E.G'oziyev va B.R.Qodirovlarning tadqiqotlarida ham temperamentning shaxs faoliyatiga ta'siri, kasbiy muvaffaqiyat hamda kasb tanlashdagi ahamiyati yoritilgan[6].

Temperament va kasb tanlash motivlari.

Kasb tanlash motivlari insonning ma'lum bir kasbni egallashga undovchi ichki va tashqi omillar majmuasidir. Motivlar moddiy manfaat, qiziqish, ijtimoiy mavqe, o'zini namoyon qilish yoki jamiyatga foyda keltirish istagi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Temperament esa ushbu motivlarning shakllanishi va namoyon bo'lishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Masalan, sangvinik temperament vakillari odamlar bilan muloqot talab qiladigan kasblarga ko'proq qiziqadilar. Xoleriklar rahbarlik va tashabbuskorlik talab qiluvchi faoliyat turlariga moyil bo'ladilar. Flegmatiklar sabr-toqat va aniqlik zarur bo'lgan kasblarda muvaffaqiyatga erishadilar. Melanxoliklar esa ijodkorlik va chuqur tahlil talab qiladigan faoliyatlarga ko'proq moyillik bildiradilar.

Psixologik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, shaxsning temperament xususiyatlari va kasb tanlash motivlari o'rtasida muayyan bog'liqlik mavjud. Ichki motivatsiyasi kuchli bo'lgan shaxslar kasb tanlashda o'z qiziqishlari va qobiliyatlariga ko'proq tayanadilar. Bu esa kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari va muhokama

Psixologik tadqiqotlar temperament va kasb tanlash motivlari o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ichki individual motivlar bilan ichki ijtimoiy motivlar o'rtasida kuchli korrelyatsion bog'lanish kuzatiladi. Bu esa shaxsning qiziqishlari va ijtimoiy ehtiyojlari o'zaro uyg'un holda shakllanishini anglatadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kasb tanlash jarayonida temperament xususiyatlarini hisobga olish yoshlarning kasbiy moslashuvini yengillashtiradi, kasbiy qoniqishni oshiradi va faoliyat samaradorligini ta’minlaydi. Aksincha, temperamentga mos bo‘lmagan kasb tanlanishi stress, kasbiy charchoq va motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, temperament va kasb tanlash motivlari o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud. Temperament shaxsning kasbiy qiziqishlari, faoliyat uslubi va kasb tanlash motivlariga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun kasb tanlash jarayonida shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat shaxsning kasbiy muvaffaqiyatini, balki jamiyatning malakali kadrlar bilan ta’minlanishini ham ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.

Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2009.

Pavlov I.P. Nerv tizimi va oliy nerv faoliyati haqidagi ta’limot. – Moskva, 1951.

Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993.

Ibn Sino A.A. Tib qonunlari. – Toshkent: Fan, 1981.

G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.

Qodirov B.R. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2008.